

## HUDUDIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

*Mahmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna,  
Namangan davlat texnika universiteti, PhD  
[presentutor@gmail.com](mailto:presentutor@gmail.com), +998972318800*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotning turli sektorlarida xususiy kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish imkoniyatlari hech qachon tugamasligi, aksincha, doimiy ravishda yangilanib borishi, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohaslarida yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun keng iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligi, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida kichik biznes foydasiga bo‘ladigan o‘zgarishlar xususiylashtirilgan korxonalarining mikroiqtisodiy qayta tuzilishi jarayonlari chuqurlashgan sari yanada jadallashishi haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik subyektlari, kichik korxonalar, raqobat muhiti, xususiy kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish imkoniyatlari.*

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida liberallashtirish jarayonlariga o‘tilishi bilan, xususiy tadbirkorlik sektori faoliyatida jadal rivojlanish va sifat o‘zgarishlari kuzatildi. Xususiy firmalarni paydo bo‘lishi mintaqadagi barcha o‘tish davri davlatlarining milliy iqtisodiyotida katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususiy sektorni statistik qayd etishdagi muammolar sifatida rasmiy statistik ma‘lumotlarning zaifligini keltirish mumkin bo‘lib, bu har xil ta‘sir ko‘rsatadi. Xususiylashtirish jarayonining rasmiy tartib-qoidalari yakunlangach, ilgari davlat mulkida bo‘lgan korxonalar hamda yirik davlat ishtirokiga ega bo‘lgan qayta tashkil etilgan kooperativlar va kapital kompaniyalarning statistik tasniflashda xususiy sektorga kiritilishi ushbu sektorning iqtisodiyotdagi haqiqiy rolini sun‘iy ravishda yuqorilashiga sabab bo‘ladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, kichik va o‘rta biznes subyektlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlardagi kamchiliklar hamda norasmiy iqtisodiyotning mavjudligi, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi haqiqiy ulushini kamaytirib ko‘rsatadi va yuqorida qayd etilgan ta‘sirlarni qisman neytrallashtiradi. O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda amalga oshirilgan xususiylashtirish siyosati, ayniqsa, yirik davlat korxonalarining aktivlarini xususiy sektorga o‘tkazish va qayta taqsimlash bo‘yicha yondashuvlar jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Xususiylashtirish jarayonlarining kichik va o‘rta korxonalarining shakllanishi hamda rivojlanishiga bo‘lgan ta‘sirini “kichik” xususiylashtirish, qayta tashkil qilish va “yirik” xususiylashtirish kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha baholash mumkin. “Kichik” xususiylashtirish jarayonida markazlashgan reja iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo‘lgan milliy kapital aktivlarining

nisbatan kichik hajmli qismlari xususiylashtirilgan bo‘lsa, “yirik” xususiylashtirish, aksincha, iqtisodiyotdagi eng katta va asosiy aktivlarning transformatsiyasini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarda iqtisodiyot tarkibidagi ulushi kattaroq bo‘lmasa ham, umumiy iqtisodiyot uchun ahamiyati jihatidan teng darajada muhim bo‘lgan ko‘plab kichik firmalar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Mazkur kichik hajmdagi tarkibiy bo‘linmalar qator obyektiv sabablarga ko‘ra kichik biznes sektorining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi:

- ular yangi tashkil etilayotgan xususiy korxonalarining boshlang‘ich kapitalini shakllantirish uchun asosiy aktivlar bazasini yaratib berdi;

- ushbu kichik bo‘linmalarga tegishli bo‘lgan aktivlar kelgusidagi tadbirkorlik subyektlari uchun kredit mablag‘larini jalb qilishda garov sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etdi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Xizmat ko‘rsatish sohasi uzoq vaqt davomida turli mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shu bilan birga, milliy miqyosda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni tartibga solish jihati unchalik chuqur ochib berilmagan. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasining har bir tarmog‘i uchun eng mos tartibga solish usullarini ajratish [1], N.Vengerska avvalgilaridan farqli ravishda usullarni guruhlab, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni tartibga solish siyosatini takomillashtirish [2], tartibga solish mexanizmining o‘zini takomillashtirish [3] ga harakat qildilar, ammo xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish strategiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish sohasi ularning tadqiqot obyekti emas edi. Bu esa o‘z navbatida, milliy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda aniqlangan muammolar iqtisodiyotning ushbu alohida tarmog‘ini rivojlantirishni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirishni maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Globalashuvning hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning qudratli tarmog‘iga aylandi, u dunyoda YAIMning qariyb 70 foizini tashkil etadi, dunyo aholisining qariyb 60 foizini ish bilan ta‘minlaydi va jahon investitsiyalarining yarmidan ko‘prog‘ini jalb qiladi [4]. Ushbu ko‘rsatkichlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasi deyarli jahon darajasiga yaqinlashmoqda, ammo uning ko‘lami hali sifatli o‘zgarishlarni va zarur rivojlanishni ko‘rsatmaydi, chunki milliy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatishning an‘anaviy, bilim talab qilmaydigan turlarining kengayishi, asosan fan-texnologiyalarining inqilobiy jarayonlar tufayli kuzatiladi. Shularni hisobga olgan holda, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi muvozanatli davlat aralashuvi va tartibga solinishi kerak.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, o‘rtacha miqdorlar, dinamika qatorlari, korrelyatsion va regression tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo‘llanilgan.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

So‘nggi yillarda xususiy sektor tarkibida ko‘plab yangi korxonalar tashkil

etilganiga qaramay, mazkur korxonalarining sezilarli qismi qisqa vaqt ichida iqtisodiy faoliyatini tugatishga majbur bo‘lgan holatlar ham kuzatildi. Bunday holatlar, ayniqsa, bozorga kirish uchun talab etiladigan dastlabki investitsiyalar hajmi nisbatan kichik bo‘lgan xususiy iqtisodiy subyektlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki bunday korxonalarining faoliyatini to‘xtatish ko‘p miqdordagi kapital xarajatlarini talab qilmaydi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarning tajribasi ko‘rsatishicha, iqtisodiyotning turli tuzilma va ko‘lamlarga ega bo‘lgan tarmoqlarida, ayniqsa, kichik korxonalar ustuvor bo‘lgan tarmoqlarda korxonalarining tez-tez tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog‘liq yuqori tebranishlar (fluktuatsiyalar) kuzatilishi odatiy hol hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanishining dastlabki bosqichlarida iqtisodiy munosabatlarning beqarorligi, bozor mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatidagi noaniqliklar sababli, yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi odatda yuqori darajadagi tavakkalchilik (risklar) bilan kechadi. Natijada, ko‘plab sohalarda kichik korxonalar raqobat muhitining keskinlashuvi, bozorga yangi raqobatchilarning kirib kelishi kabi omillar sababli kuchaygan bosim ostida qolib, ularning faoliyatini tugatishi bilan bog‘liq sezilarli tebranishlar yuzaga chiqadi. Bu holat ayniqsa yirik xususiylashtirilgan firmalar hamda davlat korxonalarini bilan solishtirilganda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Sababi, kichik biznes subyektlari iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan amalda foydalana olmaydi va bu holat ularning iqtisodiy beqarorligini yanada kuchaytiradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, iqtisodiyotning turli sektorlarida xususiy kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish imkoniyatlari hech qachon tugamaydi, aksincha, doimiy ravishda yangilanib boradi. Ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohaslarida yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun keng iqtisodiy imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida kichik biznes foydasiga bo‘ladigan o‘zgarishlar xususiylashtirilgan korxonalarining mikroiqtisodiy qayta tuzilishi jarayonlari chuqurlashgan sari yanada jadallashadi. Korxonalarini rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribalar ko‘rsatadiki, yangi tashkil qilingan firmalar yuqori dinamikligi, bozor sharoitiga tez moslashish qobiliyati bilan farqlanadi, aksincha, xususiylashtirilgan korxonalar va davlat korxonalarini tijorat faoliyatini qayta qurish hamda modernizatsiya qilish jarayonlarida ancha murakkab to‘siqlar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori mehnat bozorida yuzaga kelayotgan muammolarning eng istiqbolli yechimi sifatida qaralmoqda. Ushbu sektorning iqtisodiy salohiyati, ayniqsa, ilgari yirik davlat korxonalarini bo‘lgan subyektlarning mikroiqtisodiy qayta tashkil etilishi jarayoni davom etar ekan, yanada ortib borishi mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ilgari markazlashgan rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyotlarda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan aholining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish, iqtisodiy transformatsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim shartlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur sohadagi mavjud potensialni

obyektiv baholash uchun, aholi orasida tadbirkorlik bo'yicha shakllanmagan yashirin ekspertiza resurslarining ko'lamini hamda ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy omillarni birgalikda hisobga olish zarur. Bugungi kunda ushbu muammoli jihatlarni aniqlash va ular bo'yicha ilmiy muhokamalar davom ettirilmoqda.

Ba'zi ekspertlarning fikrlariga ko'ra, markazlashgan boshqaruv va iqtisodiy rejalashtirish sharoitida yashagan jamiyatlarda shakllangan ijtimoiy normalar, qadriyatlar va xulq-atvor modellari, odatda, aholining tadbirkorlik faolligi va tadbirkorlikka bo'lgan moyilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qarashlarga qarama-qarshi bo'lgan boshqa guruh ekspertlar esa madaniy omillar turli mamlakatlar aholisining tadbirkorlik salohiyatiga fundamental yoki hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmasligini, aksincha, tadbirkorlik qobiliyati jamiyatlarning turli shakllarida ham barqaror ravishda mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Ikkinchi qarash tarafdorlarining fikricha, turli jamiyatlar orasida tadbirkorlik faoliyatidagi farqlanishlar asosan iqtisodiy faoliyat uchun asosiy shart-sharoitlar, ayniqsa mulk huquqining tabiati va uning qonuniy himoyalani darajasiga bog'liqdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy sektorni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari quyidagi obyektiv sabablar tufayli zarur hisoblanadi:

– So'nggi o'n yilliklarda markazlashgan rejalashtirish sharoitida xususiy tashabbus muntazam ravishda cheklab kelindi. Natijada, tijorat faoliyatiga moyilligi yuqori bo'lgan fuqarolarning kasbiy malakasi yetarli shakllanmagan hamda shaxsiy kapital jamg'armalari yaratishga imkoniyat cheklangan edi. Shu bois, davlat tomonidan ko'riladigan choralar avvalgi davrda yo'l qo'yilgan ushbu salbiy oqibatlarni yumshatish yoki bartaraf qilishga qaratilishi kerak.

– Yosh bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda iqtisodiy o'sish dinamikasining asosiy qismini yangi tashkil etilayotgan kichik va o'rta korxonalar kutish mumkin.

– Barcha rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda davlat, xususiylashtirilgan korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun sezilarli miqdorda moliyaviy resurslarni ajratadi. Shu bilan birga, o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda yangi kichik korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari, odatda, xususiylashtirilgan yoki davlat mulkida bo'lgan yirik korxonalar qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadigan mablag'larning kichik qismini tashkil qiladi.

– Markazlashgan reja iqtisodiyoti sharoitida tashkil etilgan korxonalar va bozor tuzilmalari sababli, kichik biznes subyektlari, yirik va davlatga qarashli korxonalar nisbatan tuzilmaviy jihatdan zaif pozitsiyada bo'lib qolgan. Shu sababdan, kichik biznesga ko'rsatiladigan yordam ushbu tizimli kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilganligi bilan o'zini oqlaydi.

Davlat tomonidan alohida korxonalar qo'llab-quvvatlash choralari quyidagi shartlarga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim:

– Mazkur choralar xususiy sektorni kompleks qo'llab-quvvatlash dasturining bir qismi sifatida amalga oshirilishi, ya'ni alohida firmalar va infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, biznes faoliyati uchun zarur bo'lgan umumiy shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilishi kerak.

– Alohida korxonalarğa yordam berish aniq shartlar asosida amalga oshirilishi va ularning bajarilishi samarali monitoring qilinishi zarur.

– Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi dastlabki muammolar bartaraf etilganidan so‘ng, qo‘llab-quvvatlash choralari zamonaviy talablarga muvofiq tarzda qayta ko‘rib chiqilib, yangi vaziyatlarga mos ravishda tanlab olinishi kerak.

Yuqori darajada avtonom rivojlanish va dinamik taraqqiyotga ega bo‘lgan sohalarda kompaniyalar tomonidan qo‘shimcha yordam ko‘rsatish zaruriyati past bo‘lishi mumkin. Biroq ishlab chiqarish sohasidagi kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatida shakllanayotgan chuqur tabaqalanish holatlari uzoq muddatli istiqbolda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam choralarini asoslash uchun yetarli asos bo‘ladi. Shu bilan birga, sohada mavjud institutsional kamchiliklarni, xususan tavakkal kapitaliga bo‘lgan ehtiyojni bartaraf etishga yo‘naltirilgan yordam turlariga alohida ahamiyat berilishi zarur.

Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam dasturining samaradorligi uning yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiy faolligi va shaxsiy tashabbuslarini rag‘batlantirish uchun boshlang‘ich impulslarni yaratish imkoniyatiga bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, kichik biznes subyektlariga uzoq muddat davomida subsidiyalar ajratishni nazarda tutuvchi paternalistik xususiyatdagi davlat dasturlari aksincha, shaxslarning iqtisodiy tashabbuskorligini susaytirishi va natijada xususiy iqtisodiy faoliyat uchun noqulay, muammoli sharoitlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu tadbirkorlik shakllarining yosh bozor iqtisodiyotidagi muvaffaqiyatli rivojlanishning muhim omili ekanligini ta’kidlash zarur. O‘tish davrida bo‘lgan iqtisodiyotlarda, ayniqsa, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga qaraganda kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining ahamiyati kattaroqdir. Biroq, kichik va o‘rta biznes subyektlariga keng qamrovli subsidiyalar ajratish moliyaviy cheklovlar nuqtai nazaridan amalga oshirish qiyinligini hamda hozirgi amaliyot bozorda salbiy deformatsiyalarga olib kelishini inobatga olgan holda, davlat siyosatini kichik tadbirkorlikning o‘z-o‘ziga yordam berishi hamda iqtisodiy faoliyat uchun qulay sharoitlarni shakllantirishga yo‘naltirish zarur.

Umuman olganda, xizmatlar sohasining rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag‘bat bo‘ldishi aniqlandi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ijobiy va yuqori bo‘lishi avvalo, tadbirkorlik faoliyati orqali tovar hamda xizmatlar bozorining yanada faollashayotganligi, uning talab va taklif asosida tartibda solinishi hamda bozor mexanizmining yaxshi tuzilganligidadir. Endilikda tadbirkorlarga farovon, erkin boyluk yaratuvchi korxonalar sifatida qarash, yaratish va barpo etish, bu orqali nafaqat o‘zlariga, balki butun xalqimizga foyda keltirishi uchun mavjud sharoitlarni izlash va ulardan foydalanish imkonini beradigan muassasalarga ehtiyoj bor. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzurida “Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi” (MITRA)

tashkil etilgan va uning vazifalari Ushbu muassasa qanday nomlanishidan qat’iy nazar, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni joriy etish;

- vakolatli davlat organlari va tashkilotlarining tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etish;

- ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tadbirkorlikni muhim drayverga aylantirishning konseptual va MITRA trtegik yondashuvlarini hamda sohani rivojlantirish borasida byurokratik to‘siqlar, g‘ovlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash loyihalarini amalga oshirish, ularga texnik va maslahat ko‘magini tashkil etish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish;

- tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat va hududiy dasturlarni tayyorlash, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Milliy miqyosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati MITRA orqali to‘liq integratsiyalashgan biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturini yaratish va yetkazib berish uchun yordamni o‘z ichiga olishi kerak.

Ushbu dastur kelgusida “Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi”ga biznes subyektlarini tashkil qilish hamda ularni rivojlantirish borasida bir qator milliy ko‘mak dasturlarini samarali ravishda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Xususan, ushbu dasturlar quyidagi yo‘nalishlarda mavjud bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etadi:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish uchun zarur kredit va kapital resurslariga hamda biznes axborot bazalariga (yetkazib beruvchilar, raqobatchilar va bozor holati haqida) erishish imkoniyatini kengaytirish;

- biznesni boshqarishning ilg‘or uslublari, jumladan, boshqaruv hisobi, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish kabi zamonaviy menejment texnologiyalarini joriy qilish;

- bozorni tadqiq qilish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish, eksport bozorlari bilan integratsiyalashuv, zarur binolar va xo‘jalik infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash;

- mahsulot va xizmatlarning sifat nazorati hamda ta’minotini yo‘lga qo‘yish orqali davlat va yirik korxonalarining buyurtma va shartnomalariga kirish imkoniyatlarini oshirish;

- raqobatbardosh ma’lumotlarga, mahsulotlarni sifatli qadoklash texnologiyalariga va inson kapitalini rivojlantirish resurslariga kengroq kirish imkoniyatlarini yaratish.

## XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi

iqtisodiyot tarkibida alohida ahamiyat kasb etib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish nuqtai nazaridan mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushini oshirish zarurati bir qator obyektiv shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Xususan:

- xizmat ko‘rsatish sohasi ko‘lamining kengayishi va uning jadal rivojlanishi iqtisodiyotda barqaror o‘shishni ta‘minlash bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi;

- xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali aholi bandligi bilan bog‘liq muammolarni milliy va hududiy miqyosda hal qilish imkoniyatlari kengayadi.

- xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining rivojlanish dinamikasi aholi jami daromadlarining o‘shish sur‘atlariga bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida bozor miqyosini ham, sanoat tuzilmasini ham o‘zgartiradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmatlar sifatining oshishiga to‘sqinlik qilayotgan eng asosiy muammolar sifatida bozorda raqobat muhitining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xizmat narxlarining oshishini tartibga solish mexanizmlarining samarasizligi hamda xizmat ko‘rsatish sohasiga yangi tashkiliy tuzilmalar kirib kelishini cheklovchi ma‘muriy to‘siqlar mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat hududlari iqtisodiyotining eng istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanib, ushbu sektorning rivojlanishi birinchi navbatda aholining noishlab chiqarish tarmoqlarida bandligini oshirish, inson kapitali sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E. Y. Sakhno State regulation of the service sphere / E. Yu. Sakhno, K. V. Lazovska // Scientific Bulletin ChDIEU. – 2012. – No. 1 (13). – pp. 20–25.
2. Венгерская Н. С. Регулирование развития сферы услуг регионов Украины: дис. ... кандидата эконом. наук: 08.00.05 / Н. С. Венгерская. – Запорожье, 2012. – 239 с
3. О. М. Chechel Principles and mechanism of state regulation of the economy [Electronic resource] / О. М. Chechel // Bulletin of the Academy of Customs Service.: State administration. – 2013. – No. 2. – P. 103–111. – Mode of access to the article: [http://nbuv.gov.ua/j-pdf/vamcudu\\_2013\\_2\\_18.pdf](http://nbuv.gov.ua/j-pdf/vamcudu_2013_2_18.pdf)
4. World Employment and Social Outlook, Trends 2022. Copyright © International Labour Organization 2022 First published 2022. ISBN 9789220356975 (print); 9789220356982 (web PDF)
5. Коссов В.В. Бизнес-план: обоснование решений. М.: ЕУ ВШЭ, 2000. - 272 с. Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: 1998 К.Муфтайдинов, Х. Айбешов «Кичик бизнесни бошқариш» 2003 й 6-7 б.
6. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. - Т.: Мехнат. 2011 й.
7. Суюнов Д.Х. Кичик бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қиш ва унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари.иқт.фан.ном.дис.автореф.

Тошкент: 2004.-21 б..

8. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 2 майдаги ЎРҚ-328-сонли «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги [Қонунига](#) мувофиқ янги таҳрирда тасдиқланган. <https://lex.uz/docs/31846>.